

II SHO'BA TURKIY ADABIYOT TADQIQI VA TA'LIMI

CHINGIZ AYTMATOV VA O'ZBEK ADABIYOTI

Hasanov Shavkat Ahadovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
professori, filologiya fanlari doktori
Hasanovshavkat724@gmail.com

Annotatsiya. XX asr sovet adabiyoti jahon adabiyotidan farqli ravishda Yagona adabiy yo'nalish – sotsializm prinsiplari asosida yaratildi. Sotsialistik realizmning adabiyot oldiga qo'ygan talablari bilan barcha davrlarga birdek xizmat qiladigan asarlar yaratish kamdan kam ijodkorlargagina nasib qildi. Shulardan Chingiz Aytmatov edi. Yozuvchining eng muhim xizmatlaridan biri shundaki, u o'zining ulkan dardlarini, g'oyalarini "kichik odam"lar obrazi orqali ifodalash an'anasini boshlab berdi. Shuningdek, uning obyektiv voqelikka munosabati mifologiya, fol'klor, fantastika janrlarini qissa va romanlariga sintez qilish orqali reallashdi. Agar adib ijodini sho'ro davri munosabatlari tarixi deb tasavvur etsak, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan juda ko'p haqiqatlar uning uslubiga jilo bergan ertak, rivoyat, miflarning qat-qatiga singdirib yuborilganligiga ishonch hosil qilish mumkinki, shu xususiyatlari bilan Chingiz Aytmatov poetik uslubi G. Markesning ifoda tarziga yaqinlashadi.

Syujetni tarmoqlantirishda, xarakter xususiyatlari va qahramon psixologiyasini ochishda, real hayot va mifologiyani uyg'unlashtirishda, olam va odamning badiiy manzaralarini tasvirlashda sobiq sho'ro adabiyotida Chingiz Aytmatov ijodidan bahramand bo'lgan yozuvchilar juda ko'p. Bu xususiyatni o'zbek yozuvchilari ijodi misolida ham kuzatish mumkin. Keyingi davr ijodkorlaridan Tog'ay Murodning Ziyodulla, Dehqonqul, Erkin A'zamning Berdiboy, Bakir, Xayriddin Sultonovning Adash Karvon, Bahodir Qobulning Bolakay kabi obrazlari shular jumlasidan. Mazkur maqolada Chingiz Aytmatov asarlarining yetakchi poetik xususiyatlari va uning hozirgi o'zbek prozasiga ta'siri masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Sotsialistik realizm, mifologiya, G'arb va Sharq madaniyati, xarakter biografiyasi, poetik uslub, badiiy konsepsiya, tarixiy jarayon, diniy syujetlar va motivlar, XX asrning badiiy talqini

ÇINGİZ AYTMATOV VE ÖZBEKİSTAN EDEBİYATI

Hasanov Şavkat Ahadoviç,
Semerkand devlet üniversitesi, Sharof Rashidov'un adını aldı,
profesör, filoloji doktoru

Özet. 20. yüzyıl Sovyet edebiyatı, dünya edebiyatından farklı olarak, tek bir edebi yönelim temelinde, sosyalist gerçekçilik ilkeleri üzerinde yaratılmıştır. Sosyalist gerçekçiliğin edebiyata yüklediği talepler doğrultusunda, her çağa eşit şekilde hitap edecek yapıtlar üretmeyi başaran sanatçı sayısı az olmuştur. Bunların arasında Cengiz Aytmatov da vardı. Yazarın en önemli katkılarından biri, büyük üzüntülerini ve düşüncelerini "küçük insanlar" imgeleriyle dile getirme geleneğini başlatmış olmasıdır. Nesnel gerçekliğe yaklaşımı mitoloji, folklor ve fantastik türlerini öykü ve romanlarında sentezlemesiyle de gerçekleşmiştir. Yazarın eserini Sovyet dönemi ilişkilerinin bir tarihi olarak düşünürsek, yazarın aktarmak istediği gerçeklerin birçoğunun, üslubunu cilalayan masal, efsane ve mit katmanlarında saklı olduğunu görebiliriz ve bu özellikleriyle Cengiz Aytmatov'un şiirsel üslubu G. Marquez'in anlatımına yaklaşıp.

Eski Sovyet edebiyatında Cengiz Aytmatov'un olay örgüsünü dallandırıp budaklandırması, karakter özelliklerini ve kahramanın psikolojisini ortaya koyması, gerçek hayatla mitolojiyi birleştirmesi, dünyaya ve insana dair sanatsal görüşlerini tasvir etmesi gibi özelliklerinden yararlanan pek çok yazar vardır. Bu özellik Özbek yazarların eserlerinde de görülmektedir. Daha sonraki dönem sanatçılarının karakterleri arasında Togay Murod'un Ziyodulla ve Dehkankul'u, Erkin A'zam'ın Berdiboy ve Bakir'i, Khairiddin Sultanov'un Adash Karvon'u ve Bahodir Qabul'un Bolakay'ı yer alıyor. Bu makalede Cengiz Aytmatov'un eserlerinin başlıca şiirsel özellikleri ve bunların çağdaş Özbek nesrine etkileri ayrıntılı olarak incelenmektedir.

Anahtar kelimeler. Sosyalist gerçekçilik, mitoloji, Batı ve Doğu kültürü, karakter biyografisi, şiirsel tarz, sanatsal kavram, tarihsel süreç, dini olay örgüsü ve motifler, 20. yüzyılın sanatsal yorumu.

ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ И ЛИТЕРАТУРА УЗБЕКИСТАНА

Хасанов Шавкат Ахадович,

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова,
профессор, доктор филологических наук

Аннотация. Советская литература XX века, в отличие от мировой литературы, создавалась на основе единого литературного направления — принципов социалистического реализма. Лишь немногие художники смогли создать произведения, которые в равной степени соответствовали бы всем эпохам, отвечая требованиям, предъявляемым к литературе социалистическим реализмом. Среди них был Чингиз Айтматов. Одним из важнейших вкладов писателя является то, что он положил начало традиции выражения своих великих скорбей и идей через образы «маленьких людей». Его подход к объективной реальности также реализовался посредством синтеза мифологии, фольклора и фэнтезийных жанров в его рассказах и романах. Если представить себе творчество писателя как историю отношений советской эпохи, то можно быть уверенным, что многие истины, которые хотел донести писатель, были заложены в пластах сказок, легенд и мифов, отшлифовавших его стиль, и этими чертами поэтический стиль Чингиза Айтматова приближается к стилю Г.Маркеса.

В литературе бывшего СССР немало писателей, которым творчество Чингиза Айтматова импонировало разветвленностью сюжета, раскрытием черт характера и психологии героя, сочетанием реальной жизни и мифологии, изображением художественных взглядов на мир и человека. Эту черту можно наблюдать и в творчестве узбекских писателей. Среди персонажей художников более позднего времени - «Зиёдулла и Дехканкул» Тогая Мурода, «Бердибой и Бакир» Эркина Азама, «Адаш Карвон» Хайриддина Султанова и «Болакай» Баходира Кабула. В статье подробно рассматриваются ведущие поэтические черты произведений Чингиза Айтматова и их влияние на современную узбекскую прозу.

Ключевые слова. Социалистический реализм, мифология, западная и восточная культура, биография персонажа, поэтический стиль, художественная концепция, исторический процесс, религиозные сюжеты и мотивы, художественная интерпретация XX века.

CHINGIZ AITMATOV AND UZBEKISTAN LITERATURE

Hasanov Shavkat Ahadovich,

professor, doctor of philology, Samarkand state university named after Sharof Rashidov

Annotation. Soviet literature of the 20th century, unlike world literature, was created on the basis of a single literary direction - the principles of socialist realism. Only a few creators were able to create works that would serve all eras equally with the requirements that socialist realism placed on literature. Chingiz Aitmatov was one of them. One of the most important services of the writer is that he initiated the tradition of expressing his great sorrows and ideas through the images of "little people". Also, his attitude to objective reality was realized through the synthesis of the genres of mythology, folklore, and fiction in his stories and novels. If we imagine the writer's work as a history of Soviet relations, we can be sure that many of the truths that the writer wanted to convey were embedded in the layers of fairy tales, legends, and myths that polished his style, and with these features, Chingiz Aitmatov's poetic style approaches the style of expression of G. Marquez.

There are many writers in the former Soviet literature who benefited from Chingiz Aitmatov's work in branching the plot, revealing character traits and the psychology of the hero, combining real life and mythology, and depicting artistic landscapes of the world and man. This feature can also be observed in the work of Uzbek writers. Among the creators of the later period, such images as Togay Murod's Ziyodulla, Dehkankul, Erkin A'zam's Berdiboy, Bakir, Khayriddin Sultanov's Adash Karvon, and Bahodir Qobul's Bolakay are among them. This article examines in detail the leading poetic features of Chingiz Aitmatov's works and their influence on contemporary Uzbek prose.

Keywords. Socialist realism, mythology, Western and Eastern culture, character biography, poetic style, artistic concept, historical process, religious plots and motifs, artistic interpretation of the 20th century

XX asrning 30-yillarida muomalaga kiritilgan sotsialistik realizm aqidalari bir necha o'n yilliklar sho'ro ijodkorlarining asosiy tasvir prinsipiga aylandi. Undagi "sinfiylik", "partiyaviylik", "voqelikni revolyutsion taraqqiyotda ko'rsatish", "sinflar kurashi" kabi tushunchalar adabiyot tarixi bilan zamonaviy adabiyot o'rtasiga rahna soldi. Mumtoz adabiyotning qahramoni o'zligini taftish qilgan bo'lsa, zamonaviy qahramon o'zgalarni taftish qilishga kirishdi. Mumtoz qahramon o'z nafsiga qarshi kurashgan bo'lsa, zamonaviy qahramon birovlariga qarshi kurashga targ'ib qila boshladi.

Stalin shaxsi va stalinizm illatlari tanqid qilingach, adabiyotdagi vul'gar sotsiologik qarashlarga bir qadar barham berildi. Insonga insondek qarash, uning jamiyatidagi o'rni, mavqeini anglash, hayot faqat g'alabalardan iborat emasligini tushunish, inson tabiati xato va qusurlardan xoli emasligi, erkka tashnaligi, o'y-xayollari, xatti-harakatlari hamisha ham "risoladagidek" bo'lavermasligini badiiy tadqiq etishga harakatlar boshlandi. Adabiyotga yangi iste'dodlar kirib kela boshladi. Shulardan biri Chingiz Aytmatov edi.

Chingiz Aytmatov ijodida islom va nasroniylik ta'limoti an'analari, Sharq va G'arb madaniyatining hayotbaxsh xususiyatlari o'ziga xos tarzda sintezlashganligini ko'rish mumkin. Yozuvchining eng muhim xizmatlaridan biri shundaki, u sotsrealizmning tor, biqiq muhitiga toza nasimlar olib kirdi, rangin va serqirra uslubi bilan uning imkoniyatlarini kengaytirdi. Chingiz Aytmatov ijodini unga zamondosh bo'lgan, Lotin Amerikasi mamlakatlarining badiiy solnomasini magiya, fantastika, modern vositalar bilan yaratgan Gabriel Markes ijodiga qiyoslash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, G.Markes erkin ijod qildi, biroq Chingiz Aytmatovda bunday imkoniyat bo'lmadi. Gabriel Markesdan farqli o'laroq Chingiz Aytmatov iste'dodini to'la-to'kis namoyon etolmadi. Iste'dodning ma'lum qismini o'zi mansub bo'lgan tuzumning xohish-irodasi uchun qurbon qilishga majbur edi. O'z davrida va undan keyin sho'ro tuzumining obyektiv manzarasini, uning tub mohiyatini tasvirlashda Chingiz Aytmatovga teng keladigan yozuvchi bo'lmasa kerak. Biroq ulkan adibning bu estetik hukmlari sotsialistik realizm ruxsat bergan chegaralar doirasida edi. Bu xususiyat, masalan, uning ijodini sevimli adibi Mixail Bulgakov ijodi bilan qiyoslaganda yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Chingiz Aytmatov yaratgan xarakterlar tarixiga yozuvchi biografiyasi orqali qaraydigan bo'lsak, bu xarakterlar va qahramonlar tarixi –Aytmatovlar oilasi tarixidir.

Chingiz Aytmatovning syujetlari – boshidan kechirgan, jonidan o'tkazgan, ko'nglida tuygan, ongida muhrlangan, bolaligining beg'ubor osmonlarning quyuq bulutlarga to'ldirgan voqelikning hayotiy fabulasidir. Taqdiri azal uning manglayiga baxtsiz bolalik dasxatini qora harflar bilan bitgan edi. Tosh asrida ham, quldorlik va feodalizm sharoitida ham xunrezliklar, zo'ravonliklar, vayronagarchiliklar bo'lib turgan, azaliy va muqaddas qadriyatlar toptalgan, inson xorlik va zorlikka giriftor etilgan, ro'zi qiyomatdan darak beruvchi zamon alomatlarini bot-bot bo'y ko'rsatgan – biroq ularning hech biri ko'lami, tragizmi, bardavomiyligi bilan XX asrdagidek bo'lmagan edi. Bo'lg'usi adibning bolaligi shunday sharoitda kechdi.

Chingiz Aytmatov yaratgan xarakterlarning ko'pchiligi yakka, yolg'iz, yetim, o'gay, kimsasiz... Ularning biografiyasini bir qur ko'zdan kechirib chiqsak, yozuvchi deyarli barcha asarlarida ushbu motivga qayta-qayta murojaat qilganligini ko'rish mumkin.

"Yuzma-yuz"da Beksoat kampir, ya'ni urushdan qochib kelgan Ismoilning onasi kelini Saidaga oilasining tarixini so'zlab beradi: "Endi o'ylasam, qanchadan-qancha azob-uqubatlar chekmadik, bir umr taqdir bizga soya soldi. Bolalarim o'ldi, erim o'ldi, akalarimni quloq qilishdi, jamoa xo'jaligida tongdan tonggacha ishlab, keksayib, kasalmand bo'lib qoldim".

"Jamila" qissasidagi Doniyorini muallif shunday tanishtiradi: "Keyin bilishsa, Doniyor asli shu yerlik ekan. Aytishlaricha, u yoshligida yetim qolib, har kimlarning eshigida yurgan, oxiri Chaqmoqdagi qozoq tog'alarinikiga ketib qolgan, shu-shu bolani izlab borgudek bironta ham jonkuyari bo'lmagan ekan".

"Sarviquomat Dilbarim"dagi Ilyos yetimxonada o'sgan. "Birinchi muallim"dagi Duyshen – bu ocharchilik yillari ovuldan ketib, bir muddat temir yo'lda ishlab yurib, nihoyat dom-daraksiz bo'lib ketgan o'sha Toshtanbekning o'g'li Duyshen... kimsasiz, bechora. Shu asar syujetini boshdan oxir harakatga keltirib turgan qahramonlardan biri Oltinoy Sulaymonova ham yetim, qahri qattiq yangasining Zug'umlarini yutib yashagan.

"Ota men senga yodgorlik o'rnatolmadim. Sening qayerda dafn etilganligingni ham bilmayman. Ushbu asarimni, otam To'raqul Aytmatov, senga bag'ishlayman..." "Somon yo'li" asarida epilog o'rnida kelgan ushbu bag'ishlovning boshlamasidan ayon bo'ladiki, asarga asos bo'lgan davr voqeligi qahramonlarga oson va ravon taqdir yo'llarini ravo ko'rmasligidan kitobxonni ogohlantirgandek bo'ladi.

Ushbu misollardan ham ko'rinib turibdiki, Chingiz Aytmatov o'zining, ota-onasining, ukasingillarining hayot yo'llarini qahramonlariga ulashib chiqqan. Qisqaroq qilib aytganda, XX asr qirg'iz xalqining hayoti Aytmatovlar oilasining taqdiri misolida tipiklashadi.

Garchi mifologiya ijodining ajralmas qismi bo'lsada, Chingiz Aytmatov yaratgan xarakterlar yunon mifologiyasidagi qahramonlardek osmondan tushib kelmaydi, ularning zuvalasida ma'budlikka yo Xudolikka davogarlik ham yo'q. Ular bor bo'y-basti, ruhiyati, sezimlari bilan tarixan konkret makon va zamondan o'sib chiqadilar.

Har bir xarakter Chingiz Aytmatov asarlariga o'zining o'tmishi bilan kirib keladi. O'tmish bu xarakterlar uchun – xotiralar taftida isinib, bir pas tin olgach, bir manzildan o'zga manzilga, bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatga yo'llovchi o'ziga xos adabiy bekat. Piyoda, otda, aravada, traktorda, yuk mashinasida, poyezdda kelayotgan yo ketayotgan bu qahramonlar shu bois hamisha yo'lda. Davr suronlari aro o'zliklarini izlashadi. Go'yoki ular sabru bardoshdan yaralgandek taqdirning qaqshatqich zarbalarida ham o'zliklarini yo'qotmaydilar, yashashga bo'lgan ishtiyoq, hayotsevarlik ularni absurd ko'chalarga kirib ketishdan asraydi.

Ming yilliklar bilan bo'ylashadigan qirg'iz xalqi hayotidagi qiz olib qochish motiviga yozuvchi yangi, zamonaviy libos kiydiradi. Chingiz Aytmatovning talqinicha, chinakam sevgi, muhabbat oldida uzoq asrlik urug'chilik an'analari, rasm-rusumlari o'z ahamiyatini, mazmun-mohiyatini to'liq saqlab qololmaydi. Yozuvchi go'yoki qo'lga torozi olib, uning bir pallasiga qirg'iz xalqining o'tmishini, ikkinchi pallasiga kelajagini qo'yib salmoqlayotgandek, chamalayotgandek. "Jamila" qissasida Jamila Doniyor bilan ahdu paymon qilganida urushga ketgan

sovet askari Sodiqning xotini edi. Sotsrealizm aqidalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, Chingiz Aytmatovning bunaqa talqini "shakkoklik"da boshqa narsa hisoblanmasdi. Qissa sho'ro adabiyotshunosligida ancha tanqid qilindi. Biroq mashhur farang adibi Lui Aragon Aytmatovning mazkur qissasini faransuz tiliga tarjima qilib, "Jahondagi eng go'zal sevgi qissasi" deya e'tirof etgani Chingiz Aytmatovni yuz berajak ko'pgina kasofatlardan saqlab qolgani ham haqiqat.

"Sarviquomat Dilbarim"da Ilyos bilan axdu paymon qilganida Asal uzoqroq bir qarindoshiga unashtirilgan edi. Ilyos Asalni "o'g'irlab" ketadi, sevib turmush qurishadi, biroq baxtli bo'lisholmaydi. Baxtsiz muhabbat motivi adib asarlarida tez-tez uchrab turadi. Tanaboy va Bibijon, Rayimali oqin va Begimoy, Edigey va Zarifa munosabatlari alohida- alohida armon va o'kinch shevasida bitilgan mungli, mahzun muhabbatnomalardir. Bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan bu sevgi qissalaridagi juftliklarining har biri o'zlaricha baxtsiz. Ularni birlashtirib turgan sevgi rishtalari ayriliqqa tutashaveradi. Yozuvchi oila, muhabbat, burch masalalarini talqin etganda sharqona mintalitetga tayanadi. Tabiiyki, g'arb yozuvchisi bu masalalarni boshqacha talqin etgan bo'lardi.

Chingiz Aytmatov poetik uslubining yana bir jihati – uning personajlari ko'pincha tabiiy ofat sinovlariga duch keladi. Kutilmaganda yog'ib qoladigan yomg'ir, jala, qor, suv toshqini, havo haroratining to'satdan pasayishi, quyuq tuman va boshqa tabiat hodisalari shusiz ham murakkab vaziyatni, munosabatlarni, konfliktini yanada chigallashtirib yuboradi, syujetning yangi bir tarmog'ini yuzaga keltiradi. "Sohil yoqalab chopayotgan Olapar" to'lasincha ana shu konsepsiya asosiga qurilgan. Bu asarda yozuvchi uchun qadrdon bo'lgan tog'u dashtlar adabiy makoni okeanga ko'chiriladi. To'rtovlon qayiqda ovga chiqqanda okeanni quyuq tuman qoplaydi. Tabiatda "ish tashlash" boshlanadi. Quyosh nur sochmaydi, yulduzlar yo'l ko'rsatmaydi, tumanni tarqatish uchun shamol ham esmaydi. Quyuq va muallaq tuman...

"Lekin bu tun ham ob-havo zarra o'zgarmadi. Dengiz ustidagi tuman avvalgiday parvoi palak, dong qotib qolgandi. Borliqni yanada bo'g'iq oqshom zulmati bosdi. Ketidan aql bovar qilmaydigan darajada uzun, chidab bo'lmas darajada qorong'u, dahshatli tun boshlandi. Lekin qaniydi tun oralig'ida shamol tursa, mayli, bo'ron tursa, to'fon bo'lsa ham mayliydi, ishqilib, havo ochilib, osmonda yulduzlar ko'rina qolsa! Lekin tunda zarracha o'zgarish alomati, suvda birorta to'lqin, havoda birorta epkin yo'q edi – borliq cheksiz sukunatga, cheksiz zulmatga chulg'angan edi. Cheksiz zulmat qo'ynida adashib qolgan yolg'iz qayiq va undagi azob-uqubattan, ochlikdan, tashnalikdan tinka madori qurigan odamlar tuman ichida pista po'chog'iday bir joyda aylanishlar, noma'lum qismat va umidsizlik changalidan chiqolmas edilar..." (Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar. Qissalar. "Sharq" 2016, 634-bet).

Yozuvchi shunday bir tragik vaziyat yaratadiki, qahramonning birgina so'zi, birgina harakati uning kim ekanligini yarq etib namoyon qiladi. Okeanning suvi sho'r – ichib bo'lmaydi, chuchuk suv tugayozgan, yegulikka esa quritilgan sho'r baliq qolgan, xolos. Tuman tarqab, sohilga yetguncha bola – Kiriskga suv yetar-yetmas. Kiriskning yashab qolishi uchun avval bobosi, keyin tog'asi, so'ng otasi o'zlarini qurbon qiladilar – inon-ixtiyorlarini cheksiz zulmat va suv qoplagan bahrga topshiradilar.

Chingiz Aytmatov realist ijodkor. Uning realizmi mifologiya, xalq og'zaki ijodi, diniy syujetlar va motivlar, fantastikaga to'yingan realizmdir. "Musibat pallalarida bir og'iz aytilgan gapning tagida undan necha barobar ko'p haqiqatlar aytilmasdan turadi", deydi "Sarviquomat dilbarim" asari qahramonlaridan biri. Agar adib ijodini sho'ro davri musibatlar tarixi deb tasavvur qiladigan bo'lsak, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan juda ko'p haqiqatlar uning uslubiga jilo bergan ertak, rivoyat, miflarning qat-qatiga singdirib yuborilganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Chingiz Aytmatovning real hayotdan mifologiyaga, mifologiyadan real hayotga tabiiy o'tib ketishini ta'minlaydigan poetik usullari bor. Bular – tush ko'rish, isitmada alahlash, ayni paytda o'zga jonzodga evrilish istagi, galyutsinatsiya holatlaridir.

"Oq kema"da bola baliq odam bo'lib ketishni orzu qilsa, "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar"da O'rxun bobo suv parisi bilan birlashib, manguликка singib ketish umidida dunyodan o'tadi.

G.Flober: "Bovari xonim – bu mening o'zim" – deya bejiz aytmagan. Hush va tush oralig'ida yashayotgan bola ham, O'rxun bobo ham – yozuvchining o'zi. Chunki Chingiz Aytmatov Muxtor Shoxonov bilan bo'lgan suhbatlarida alag'da tushlar ko'rishini ta'kidlab o'tadi. "Cho'qqida qolgan ovchining ohu zori"dagi iqroynomalar Chingiz Aytmatov ijod olamiga olib kiradigan kalit, uning va qahramonlarining tarjimai holidir.

Chingiz Aytmatov fenomenini yuzaga chiqargan yana bir jihatga e'tibor qaratish zarur. Buyuk yozuvchi adabiyotga yangi insonni, yangi xarakterni olib kirdi. Bu inson obrazi o'zining yaqin salafalaridan farqli o'laroq kurashchan, jangovor hamda muayyan g'oyalar yalovbardori emas, balki, kichikroq bir jug'rofiy hududda o'zligini, jamiyatdagi o'rnini izlayotgan inson. Gabriel Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asari bilan Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari deyarli bir vaqtda yaratilgan. Realizm va mifologiyani uyg'unligi, parallel holda kechishi har ikki asar uchun xos xususiyat. Bundan tashqari, har ikki asarning voqea-hodisalari sivilizatsiyadan chetqoq, ovloq yopiq makonlarda kechadi. "Yolg'izlikning yuz yili" qahramonlari Makondoning to'rt tarafidan suv bilan o'ralganligini anglab, tamaddundan chetda chirib, nom-nishonsiz yo'qolib ketmaslik uchun u yerdan chiqishga harakat qilishadi. "Oq kema" qahramonlari esa o'z makonlari – o'rmon xo'jaligidan chiqib ketishni xayollarga ham keltirishmaydi. Chunki ularni sivilizatsiyaning o'zi shu ovloq go'shaga uloqtirib tashlagan.

Uzoq asrlar davomida chorva ortidan yaylovdan toqqa, tog'dan yaylovga o'tovi bilan ko'chib yurgan kishilar uchun shahar hayoti zerikarli, diqqinapas, soxta. Shu bois hech qanday kuch ularni bu makonlaridan chiqarolmaydi. O'rmon xo'jaligida bor-yo'g'i uchta oila: Mo'min chol kampiri va nevarasi bilan, O'rozqul xotini Bikey hamda Seyidaxmed xotini Guljamol va qizchasi bilan yashashadi.

"Oq kema"ning arxitektonikasi shunday qurilganki, personajlarning birortasi o'zlari yashab turgan mikro hududdan tashqariga chiqib ketolmaydi: hamma bir-biriga begona bo'lsa-da, ayni damda hamma bir-biriga ko'rinmas iplar bilan bog'lab tashlangandek.

Sujet oddiy: johil O'rozqul har gal mast bo'lib, farzandsizligi chun xotinini kaltaklaydi, Mo'min chol – tabiatan mute, qo'lidan hech ish kelmay, titrab-qaqshab iztirob chekadi, O'rozqulga yalinib-yolvoradi. Bir chekkada bularni kuzatib turgan bola yig'lab, o'zining ertaklar dunyosiga talpinadi. Qissada keltirilgan shu real hayot manzarasi bilan parallel ravishda kiritilgan rivoyat tufayli asar syujetidagi xronotop, ya'ni makon va zamon kategoriyasi cheksiz kosmik miqyoslarga ko'tariladi. Rivoyat qirg'iz xalqining kelib chiqish tarixidan boshlanadi. Rivoyatdagi ramziylik bois o'tmish va kelajak bugunning chorrahasida uchrashadi. Tabiatan mo'min bo'lgan chol, ertak va rivoyatlarga yosh boladek ishonadigan, ko'z yoshi qilib tinglaydigan bu chol – fojealar girdobida yashaydi. Real voqelikdan zada bo'lib, ertaklar olamiga singib borayotgan bola – o'tmish va kelajakni bog'lab turgan uzv, ko'priq. O'rozqul esa johillikning timsoli. Jaholat esa, ma'lumki, barcha zamonlarda ham qurbonlik talab qilgan – rivoyatda shoxdor Ona Bug'i, qissada Bola jaholat qurboniga aylanadi.

Mo'min chol umrida ilk bor isyon ko'targach, ya'ni O'rozqulning dag'-dag'alariga quloq solmay nevarasini maktabdan olib kelish uchun Oqboshni minib ketgach, O'rozqul mast bo'ladiyu, xotinini uydan haydab yuboradi. Falakning bedodligini qarangi, bu ayol erini emas, eriga gap qaytargan o'z otasini qarg'ay boshlaydi.

Mo'min bobo bu hayotda nimagaki erishgan bo'lsa, barchasi zavol topdi. O'g'li urushda halok bo'ldi, xotinini uning dog'ida vafot etdi, qizi bolasini unga qoldirib, shaharga ketib qoldi. Katta qizi Bikeyning ahvoli esa bu. O'zi esa keyingi kampirining qarg'ishi va O'rozqulning zug'umlarini yutib yashashga mahkum. Bu fojealarning ko'lami keng, bu fojealarning poyoni yo'q. Bular kamlik qilgandek Mo'min boboning shoxdor Ona Bug'uga – xalqining xaloskoriga, o'zining o'tmishiga, bolaning kelajagiga o'z qo'llari bilan o'q uzishi shunday hayotiy mantiq bilan asoslanganki, hech qanday fantastik tafakkur kuchi bilan ham bu haqiqatni rad etib bo'lmaydi.

Sobiq sho'ro adabiyotida Chingiz Aytmatovdan ta'sirlanmagan nosir kamdan kam topiladi. Syujetni tarmoqlantirishda, xarakter xususiyatlari va qahramon psixologiyasini ochishda, real hayot va mifologiyani uyg'unlashtirishda, peyzaj va portet chizishda, intrigalarni kuchaytirish va

konfliktini o'tkirlashtirishda, xullas, odam va olamning badiiy manzaralarini tasvirlashda o'zbek yozuvchilari ham Chingiz Aytmatov saboqlaridan bahramand bo'lishdi. Shu o'rinda "Oq kema" va Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asaridagi ba'zi epizodlarni qiyoslab ko'rsak.

"Oq kema" qissasidan: "... ammo kattalar, ming afsuski, bola o'ylagandek, odil ish tutishmadi. Ular hammasini aksincha qilishdi. O'rozqul uyga yana mast bo'lib qaytdi. Uni hech nima bo'lmaganday qarshi olishdi. Bobo otini ushladi, xotini somovarga yugurdi, hammayoq faqat uni kutayotgandek. U esa jinnilik qila boshlaydi. Oldiniga mayuslanib yig'laydi. Nega yig'lmasin, axir bu qanaqasi, qo'l berib so'rashishiga arzimaydigan eng jo'n odamning ham istagancha bolasi bor. Beshta, hatto, o'nta. O'rozqulni-chi? Uning nimasi kam boshqalardan? Nimasi yetmaydi uning? Yoki martabasi pastmi? Xudoga ming qatla shukur, noyob o'rmonning qorovuli! Yoki u qandaydir daydi zotmi? Axir lo'lining ham lo'livachchasi borku, u betayinmi, obro'si yo'qmi? Hammasi bor. Hammasiga yetishgan. Egarlangan oti bor, qo'lidan qamchi tushmagan, har yerda uni hurmat bilan kutib olishadi. Xo'sh, uning tengdoshlari o'z farzandiga to'y qilishadi, u-chi? O'g'ilsiz, urug'siz, kim u?" Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida o'qiymiz:

– Yaxshimisiz, aka? Bola-chaqalar o'syaptimi?

– Qulluq, qulluq.

– Nevaralar katta bo'lyaptimi?

– Shunday, shunday.

– Chopqillab-chopqillab yurishibdimi?

Akamiz boshqa gaplarni eshitmadi. Qo'li ko'ksida, egik boshini irg'ab o'tiraberdi.

Akamizning to'y-to'ylagani, yegani-ichgani burnidan chiqdi.

Uyiga yonib keldi.

Nimaga endi faqat bola-chaqani so'raydi? Nimaga manavi dang'illama uylarni, keng hovlini, jiyron otini so'ramaydi? Qo'ylari, mollari, qancha? Har yili qo'zilyaydi, buzoqlaydi. Tokzori yiliga salkam yarim tonna mayiz beradi. Nimaga bular so'ralmaydi? O'zi hamisha sog'lom, tan-joni sog', otday. Ikki-uch odamning ishini qiladi. Ko'p-ko'p mehnat haqqi oladi. Buni-chi?

Akamiz ichkarilab uzala tushib uxlayotgan opamizni ko'rди. Jag' suyaklari bo'rtib, qarab turdi. Akamiz uni bilagidan ushlab, uyning burchagiga otib yubordi".

O'rozqul bilan Qoplon tamoman ikki olam, birovida salbiy qusurlar, ikkinchisida ijobiy sifatlar mujassam, har biri o'ziga xos yangi, original, bir-biriga umuman yaqin kelmaydigan xarakterlar, biroq muayyan bir vaziyatga tushganda hayotga qarashlari, fikrlash tarzi, xatti-harakatlari, ruhiy holatlari nuqtai nazaridan bir-biriga yaqinlashib qoladi.

Chingiz Aytmatovning "Alvido Gulsari" va Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarlaridagi Gulsari va Tarlon, Tanaboy bilan Ziyodulla qiyosiy o'rganilganda, T.Murod Ch.Aytmatov adabiy saboqlaridan ijodiy va ijobiy bahramand bo'lganligi yanada konkretlashadi.

Davr shiddati, atom asri va texnika rivoji, dunyo tamadduni insonning azaliy qadriyatlariga, milliy udumlariga, o'zligiga putur yetkazishi mumkinligini Chingiz Aytmatov qissalarida ko'rsatgan edi.

Qirg'izman, qozoqman degani o'tovsiz yasholmaydi. Yozuvchi "Alvido, Gulsari"da o'tovning "sinf sifatida quloq" qilinishini mahorat bilan tasvirlaydi. Shuningdek, "Oq kema"dagi quyidagi xarakterli epizod e'tiborni tortadi. "Mo'min chol shaharga kartoshka sotgani borgani, qizini, ya'ni bolaning onasini ko'rib kelganini xotini va Bikeyga hikoya qiladi: "Katta turar joyda, lekin katalakdek xonada yashashar ekan. Hovlisida esa xuddi bozordagidek birov-birovni tanimasmish. Hamma uyiga kirdi deguncha eshigini qulflab olarmish. Xuddi turmadagiday, hamisha qamalishib o'tirisharmish" (456-bet). Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Tamaddunning ming yillik hayot tarziga bunday bostirib kirishi globalizatsiyaning ilk ko'rinishlari bo'lib tuyuladi.

Erkin A'zamning "Piyoda" hikoyasi boshqacharoq xarakterda bo'lsada, uning qahramoni Berdiboy ham mehr-oqibatning yo'qolishi, azaliy qadriyatlarning poymol etilishi, aka-ukachilik, qarindosh-urug'chilik hissining so'nib borayotganligini taraqqiyotda ko'radi. "Qani edi, aka-ukalar barimiz bir joyda, masalan, deyluk, momomning bog'ida – dashtda yashasak, bir qo'ra, bir qo'rg'on bo'lib! ...Singillar ham shu yaqin atrof xesh-hamsoyaga uzatilgan bo'lsa – issiq sovug'u yaxshi-yomon kunlar degan gaplar bor. O', qani bunday bo'lsa! Ana o'shanda mehr-oqibat ham, og'a-

inichiligu ota-bolalik deganlari ham boshqacha bo'lardi...". Talqin etilgan muammo, mavzuda yaqinlik bo'lsada, Erkin A'zamning Berdiboyi butunlay yangi xarakter. Berdiboy bugungi voqelikka o'tmishning ko'zi bilan qaraydi. Uning yurish-turishidagi qo'rslik, qiyofasidagi tundlik, gap-so'zlaridagi piching, zaharxanda insoniy munosabatlarda samimiyatning, turmushda tabiiylikning kamchil matoga aylanib borayotganligidan.

"Qanday yashash kerak?" – degan savolga hayot, tarix, dinlar, madaniyatlar, shaxslar, falsafa, sharoit, muhitning javoblari, talqinlari turlicha. Ch.Aytmatovning qahramonlari ana shu boshqotirma javoblar labirintida doimo yo'l izlashadi.

Shunisi muhimki, har qanday davru sharoitda ham inson sha'ni va nomiga dog' tushirmaslik kerak, degan g'oya yozuvchi yaratgan aksariyat xarakterlarning qon-qoniga singdirib yuborilgan. Turli-tuman kasb-korga, individual hayot yo'llariga, xarakterga ega rang-barang oddiy kishilar obrazining Chingiz Aytmatov nasrida paydo bo'lishi, birinchidan, adabiyotni real hayotga yanada yaqinlashtirgan bo'lsa, ikkinchidan, turli milliy adabiyotlarda ana shunday muayyan hayotiy maqsadlar va dardlar bilan yashayotgan "kichik", "ko'p qatori" obrazlar asrini boshlab berdi. Keyingi davr ijodkorlaridan T.Murodning Ziyodulla, Dehqonqul, E.A'zamning Berdiboy, Bakir, X.Sultonovning Adash Karvon, B.Qobulning asarlaridan asarlariga ko'chib yuradigan Bolakay kabi bir qator obrazlar shular jumlasidan.

Chingiz Aytmatov Mo'min chol timsolida davr voqeligi ezib, abgor qilgan inson obrazini yaratgan edi. Keyinchalik romanlarida yaratilgan manqurt, iks zurriyotlar g'arbu sharqda, shimolu janubda kechgan, kechayotgan voqelikning badiiy umumlashmalari, nazarkarda adibning karomatlari bo'lib qoldi.

"Kassandra tamg'asi"ga kelib yozuvchi o'zlikdan, qadriyatlardan voz kechishning foje oqibatlarini global miqyoslarga chiqqanligini ko'rsatadi. Krilsov o'z laboratoriyasida undirilgan embrionlardan mahkuma ayollarning bachadonlariga ko'plab iks zurriyotlar, ya'ni ota-onasi ham, aka-ukalari ham, tog'a-jiyanlari ham, xullas, birorta qarindosh-urug'i yo'q bolalar yetishtira boshlaydi.

XX asrning oxirgi o'n yilliklarida kechgan tarixiy jarayon – bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish boshqa ong qirralari kabi badiiy adabiyotda ham ijtimoiy fikrning salmog'ini oshirdi. Shulardan kelib chiqib, Chingiz Aytmatov uslubidagi ikki asosga e'tibor qaratmoq zarur. Qissalarida tabiat va tabiatga yaqin xarakterlar kashf etilgan bo'lsa, romanlarida jamiyat va shaxsning ijtimoiylashish jarayonlari kuchayganligi seziladi. Hozirda ana shu ikki asosning turli xil kombinatsiyalaridan rang-barang asarlar yaratilayaptiki, bu alohida tadqiqot mavzui.

Taniqli adabiyotshunos I.G'afurov Aytmatov asarlaridan qiyomat azoblarining faryodi eshutilib turishini ta'kidlaydi. Chindan ham bu asarlarda oxirzamon alomatlarini o'zining butun mahobati bilan gavdalanadi. Shu bilan birga yozuvchi inson umrining poydorligi va bardavomligiga, insoniyat kelajagiga umid bilan qaraydi, ana shu umidvorlik eng og'ir damlarda ham uning qahramonlari qalbiga taskin va dalda beradi.

"...Inson o'ylari bilan Dengizga va Osmonga tenglasha oladi. Shu o'ylari bilan u tabiatning abadiy qudrati oldida o'zining mavjudligini isbotlaydi, shu bilan inson koinotning teranligi va yuksakligiga munosib bo'la oladi. Shuning uchun inson hayot ekan, u ruhan dengizday qudratli, ruhan osmonday cheksiz: chunki o'y-xayolatning cheki yo'q. Agar inson o'lsa, uning o'y-xayollarini boshqa bir inson davom ettiradi, u ham o'lsa, keyingisi va hokazo, bu hodisa cheksiz davom etaveradi..." (605-bet).

Inson irodasi va sha'niga tiklagan badiiy obidalarini tufayli Chingiz Aytmatovni ko'pchilik ilm va ijod ahli Alisher Navoiy, Lev Tolstoy, Mixail Sholoxov, Gabriel Markeslarga qiyoslashadi. Bu to'g'ri. Chunki har bir davr o'z g'oyalarining ifodasi o'laroq ana shunday mutafakkirlarni tarix sahnasiga olib chiqadi.

Tasavvuf talqiniga ko'ra, olamning yaratilishidan maqsad – inson, insonning yaratilishidan maqsad komil insondir. Komillikka yo'l – shodu xurramlikka yo'l emas, qayg'uiga safar, musibatlarga safar. Haqiqiy talantning hayot va ijod yo'li ham xuddi shunday – mashaqqat va

zahmatlardan yaraladi, o'zlikni anglash va tinglashga da'vat etadi, ma'naviy poklanish va yuksalishga chorlaydi.

Ana shu azaliy va abadiy haqiqatni Chingiz Aytmatov o'z asarlari bilan hayot va davr tasdig'idan o'tkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Айтматов Ч. И дольше века длится день... Роман, повест. Москва., "Известия", 1986. - 432 с.
2. Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Тошкент., F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -560 б.
3. Aytmatov Ch. Erta qaytgan turnalar. Qissalar. Toshkent., "Sharq" nashriyot matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2006. -496 b.
4. Айтматов Ч. Қиссалар. Тошкент., "Шарқ" нашриёт матбаа аксионерлик компанияси бош таҳририяти. 2016. -656 б.
5. Айтматов Ч. Аскар бола. Ҳикоялар. Тошкент., Адабиёт учқунлари, 2019. -160 б.
6. Маркес Г. Ёлғизликнинг юз йили. Роман, қисса. Тошкент., "Шарқ" нашриёт матбаа аксионерлик компанияси бош таҳририяти. 2010. -480 б.
7. Маркес Г. Бузрукнинг кузи. Тошкент., Янги аср авлоди. 2008. -324 б.
8. Мурод Т. Ойдинда юрган одамлар. Тошкент., "Сано-Стандарт" нашриёти. 2017. -192 б.
9. Аъзам Э. Кечикаётган одам. "Шарқ" нашриёт матбаа аксионерлик компанияси бош таҳририяти. 2008. -448 б.
10. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. "Шарқ" нашриёт матбаа аксионерлик компанияси бош таҳририяти. 2007. -272 б.
11. Қобул Б.енайўл. қиссалар ва ҳикоялар. Тошкент., "MASHHUR-PRESS", 2018. -352 б.